Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlarlari	678
Xushnazarova Ma'mura Nodirovna	
Xalq qo'shiqlari orqali 6–7-sinf o'quvchilarida adabiy- nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish	681
Yuldasheva Noila Ravshan qizi	
Креативное мышление: на пути к совершенствованию	685
Абдулбориева Мехруза Анвар қизи	
Зарубежный опыт в профессиональном образовании: тенденции и перспективы.....	689
Азизова Асаль Руслановна	



Muloqot turlari klassifikatsiyasi xususida shaxslararo muloqot madaniyati	693
Urakov Sherzod Raxmonovich, Usarov Orifjon Olimovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirish omillari va yo'nalishlari	697
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Didaktik intellektual o'yinlar vositasida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi	701
Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna	
Tanqidiy fikrlash va informatika ta'limining nazariy asoslari.....	705
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna	
Internet qaramligi natijasida yuzaga keluvchi zamonaviy Maugli sindromining psixologik xususiyatlari va davolash usullari	709
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Ismlarning o'ziga xosligi va badiiy onomastikadagi o'rni	713
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda o'qib tushunishning hamohangligi	717
Shermo'min Yarmatov	
Raqamli zamon va oila: ijtimoiy tarmoqlarning nikoh barqarorligiga ta'siri	720
Nazokat Xudoyqulova	

RAQAMLI ZAMON VA OILA: IJTIMOIY TARMOQLARNING NIKOH BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Nazokat Xudoyqulova

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada raqamli zamon sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga, xususan, nikoh barqarorligiga ta'siri chuqur tahlil etilgan. O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashuvi oilaviy muloqot, ishonch, emotsional yaqinlik kabi muhim omillarni qanday o'zgartirib yuborayotgani statistik ma'lumotlar, psixologik nazariyalar va sotsiologik so'rovlar asosida ochib beriladi. G'arb va Sharq olimlarining nikohga oid yondashuvlari, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning oila institutini mustahkamlashga doir siyosiy chiqishlari tahlil etilib, milliy va global kontekstda masalaga yondashuvlar solishtirilgan. Maqolada virtual xiyonat, ixtiyoriy solishtirish sindromi, hissiy sovuqlik kabi raqamli muhitda shakllangan yangi hodisalar psixologik jihatdan tahlil qilinib, yosh oilalarning ushbu omillar ta'sirida qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani yoritiladi. Maqolada, shuningdek, internetdan oqilona foydalanish, axborot madaniyatini rivojlantirish va oilaviy qadriyatlarga ustuvorlik berish zaruriyati ilgari suriladi. Raqamli muhitdagi xavf va imkoniyatlar orasida muvozanatni topish, zamonaviy oila barqarorligini saqlashda eng muhim ijtimoiy vazifalardan biri sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: nikoh, oila, sodiqlik, ishonch, axloq, ma'naviyat, qadriyat, muloqot, Instagram, TikTok, Youtube.

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the impact of social networks on family relationships, in particular on the stability of marriage, in the digital age. In the conditions of Uzbekistan, the popularization of social networks in recent years is changing such important factors as family communication, trust, and emotional intimacy, based on statistical data, psychological theories, and sociological surveys. The approaches of Western and Eastern scholars to marriage, as well as the political statements of President Shavkat Mirziyoyev on strengthening the institution of the family, are analyzed, and approaches to the issue in the national and global contexts are compared. The article psychologically analyzes new phenomena formed in the digital environment, such as virtual betrayal, voluntary comparison syndrome, and emotional coldness, and highlights the difficulties that young families face under the influence of these factors. The article also puts forward the need for rational use of the Internet, the development of information culture, and the prioritization of family values. Finding a balance between the risks and opportunities in the digital environment is interpreted as one of the most important social tasks in maintaining the stability of a modern family.

Key words: marriage, family, loyalty, trust, ethics, spirituality, values, communication, Instagram, TikTok, Youtube.

Аннотация: В данной научной статье представлен глубокий анализ влияния социальных сетей на семейные отношения, в частности на устойчивость брака, в цифровую эпоху. В условиях Узбекистана популяризация социальных сетей в последние годы меняет такие важные факторы, как семейное общение, доверие и эмоциональная близость, на основе статистических данных, психологических теорий и социологических опросов. Анализируются подходы западных и восточных учёных к браку, а также политические заявления президента Шавката Мирзиёева об укреплении института семьи, сопоставляются подходы к этому вопросу в национальном и глобальном контекстах. В статье психологически анализируются новые явления, сформировавшиеся в цифровой среде, такие как виртуальная измена, синдром добровольного сравнения и эмоциональная холодность, и освещаются трудности, с которыми сталкиваются молодые семьи под влиянием этих факторов. В статье также выдвигается необходимость рационального использования Интернета, развития информационной культуры и приоритетности семейных ценностей. Поиск баланса между рисками и возможностями в цифровой среде трактуется как одна из важнейших социальных задач по поддержанию стабильности современной семьи.

Ключевые слова: брак, семья, верность, доверие, этика, духовность, ценности, общение, Instagram, TikTok, YouTube.



KIRISH

Nikoh - inson psixologik jihatdan xotirjamlik, mehr, ishonch va doimiy tayanchga ega bo'ladigan asosiy munosabatdir. Psixologlar fikricha, barqaror nikohda yashovchi insonlarda stress darajasi past, maqsadli harakatlar esa ko'proq bo'ladi. Nikoh - avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar, til, din, urf-odat va axloqiy me'yorlarning uzluksizligini ta'minlovchi vositadir. Aynan nikoh orqali ota-onalar bolalariga milliy va diniy qadriyatlarni singdiradi. Nikoh barqarorligi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, demografik muvozanat va avlodlar uzviyligi ta'minotida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uning barqarorligi oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar, iqtisodiy sharoitlar, psixologik muvofiqlik va axborot muhitining ta'siri ostida shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharq va G'arb olimlari bu borada turlicha yondashuvlar bildirgan. G'arb sotsiologlari orasidagi taniqli olim Antoni Giddens o'zining "Transformatsiyalangan yaqinlik" konsepsiyasida nikohga mustahkamlik beruvchi eng muhim omil sifatida emotsional aloqaning chuqurlashuvi va o'zaro hurmatga asoslangan tenglikka yo'naltirilgan munosabatlarni ta'kidlaydi. Giddens fikriga ko'ra, zamonaviy juftliklar avvalgidek ijtimoiy bosim yoki iqtisodiy zaruriyat bilan emas, balki "to'liq dialogga asoslangan sheriklik" asosida nikoh barqarorligini saqlab qoladilar.^[1]

Sharqda esa, masalan, musulmon olamining yirik mutafakkiri Imom G'azzoliy o'zining "Ihyo ulum ad-din" asarida nikohning barqarorligini ta'minlovchi asosiy jihatlari sifatida axloqiy poklik, sabr-toqat, o'zaro hurmat va ma'naviy yaqinlikni ilgari suradi.^[2]

Bugungi kunda O'zbekistonda nikoh barqarorligi masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 8-mart kuni ayollar va xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda shunday degan edi: "Bugungi zamonda oila muqaddasligiga putur yetkazayotgan tahdidlar kuchaymoqda. Shuning uchun biz oilaning mustahkamligini ta'minlash, yoshlarni oila hayotiga tayyorlash masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi deb belgiladik"^[3] Davlat rahbari so'zlariga tayanib aytish mumkinki, nikoh barqarorligi nafaqat shaxsiy mas'uliyat, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning ham ajralmas qismidir.

So'nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok, Facebook va boshqalar) hayotimizga chuqur kirib keldi. 2024-yil boshiga kelib O'zbekistonda 8,7 milliondan ortiq kishi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotgani, ya'ni aholining qariyb 25 foiziga teng qismi ekanligi qayd etilgan. Pandemiya davri bu jarayonni tezlashtirgan omillardan bo'lib, odamlar onlayn muloqotga ko'proq tayanadigan bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashish va muloqot qilish osonlashgani bilan birga, ularning oilaviy hayotga ta'siri dolzarb muammoga aylandi. Xususan, nikoh barqarorligiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini chuqurroq o'rganish zarurati paydo bo'ldi.

MDH davlatlari ichida ajralishlar soni tahlil qilinganda, O'zbekistonda har yili o'rtacha 250-300 ming nikoh qayd etilib, 45-49 ming atrofida ajralish holatlari ham kuzatilmoqda. 2020-yildan keyin ajrimlar soni sezilarli oshdi: masalan, 2021-yilda ajrimlar soni avvalgi yilga nisbatan 15 foizga, 2022-yilda esa yana 22 foizga ko'paydi. Oilaviy ajrimlar ko'payishiga turli omillar sabab bo'lsa-da, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar ham ular qatorida tilga olinmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy oilaviy hayotda ochiq muloqot va o'zaro tushunish barqaror nikohning tayanchlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq, raqamli davrning o'ziga xos xususiyati bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari keng tarqalishi oilaviy muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, bir xonadonda yashayotgan er-xotinlar ko'pincha bevosita yuzma-yuz suhbatlar o'rniga internet, smartfon va ijtimoiy tarmoqlar orqali tashqi dunyo bilan virtual aloqani ustun qo'yib borishmoqda. Ushbu jarayon oila a'zolari o'rtasidagi hissiy yaqinlikka rahna solmoqda. Amerikalik taniqli psixolog Sherri Turkle o'zining "Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age" asarida shunday deydi: "Texnologiya bizni bog'laydi, ammo bir vaqtda insoniy rishtalarni zaiflashtiradi. Biz birga bo'lib, birga bo'lmagan holatga tushib qolmoqdamiz"^[4] Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, doimiy "onlayn holatda" bo'lish ehtiyoji turmush o'rtoqlar o'rtasidagi ishonch, mehr, ijobiy baholash va tushunishga zarar yetkazadi.

2023-yil O'zbekistonda o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma ko'ra, 18-35 yosh oralig'idagi turmush qurganlarning 62 foizi birgalikda yashash davomida "telefon tufayli muloqot qisqarganini" tan olgan. Ayniqsa, ish kunlaridan keyingi vaqt, kechki ovqat jarayoni yoki dam olish kunlarida ham er-xotinlar bir-biriga e'tibor qaratish o'rniga telefon ekranlariga qaram holatda qolishayotganini ko'rish mumkin. Bu holat oila a'zolari orasida o'zaro tushunmovchilik, sovuqlik va ishonchsizlik kabi hissiyotlarni kuchaytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy hayotning chegaralarini noiloj kengaytirib yuborishi mumkin. Turmush qurgan insonlarning o'z hayotidagi barcha tafsilotlarni internetda ommaga oshkor qilishi yoki bego-



nalar bilan me'yoridan ortiq aloqa o'rnatishi oiladagi ishonch muhiti zaiflashishiga olib keladi. Taniqli nemis psixologi, kommunikatsiya bo'yicha ekspert Frideman Shulz fon Tun o'zining "To'rt quloq nazariyasi"da har qanday muloqotda tinglash va anglashning to'rt jihati - axborot, munosabat, ochiqlik va da'vat - borligini ta'kidlagan.^[5] Virtual muloqotda esa aynan "muloqotning hissiy yo'nalishi" zaiflashadi, bu esa er-xotinlar o'rtasida begonalik tuyg'usining kuchayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal hayot" tasvirlari bilan haddan tashqari ko'p to'qnash kelish, real hayotdagi turmush o'rtoqning kamchiliklariga nisbatan salbiy solishtirishga sabab bo'ladi. Psixolog Jean Twenge 2022-yildagi tadqiqotida shunday xulosaga kelgan: "Instagram va TikTok kabi platformalarda baxtli juftliklar haqidagi ko'rgazmali tasvirlar foydalanuvchilarda o'z munosabatlari past baholash holatini keltirib chiqaradi, bu esa hissiy uzoqlashuv va kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi"^[6].

Shuningdek, Fransuz psixologi Serge Tisseron ekranning psixodinamikasi haqidagi nazariyasida inson miyasi virtual obrazlar va real hayot voqealarini farqlashda tobora qiynalayotganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inson ijtimoiy tarmoqlardagi "filtrlangan baxt" tasvirlarini haqiqat deb qabul qilib, o'z turmushidagi murakkabliklarni yomonlik sifatida ko'ra boshlaydi.^[7] Ushbu psixologik transformatsiyalar, ayniqsa yosh oilalarda barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. O'zbekistonda 2024-yilda o'tkazilgan "Oilaviy qadriyatlar va axborot muhitining o'zaro ta'siri" mavzusidagi tadqiqot natijalariga ko'ra, ajrashgan juftliklarning 41 foizi "ijtimoiy tarmoqlar sabab turmushdagi real aloqaning zaiflashganini" asosiy muammo sifatida ko'rsatgan.

Raqamli muhitning oilaviy munosabatlarga ta'siri tobora murakkab va ko'p qatlamli tus olmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan "ideal juftlik", "mukammal nikoh", "har doim baxtli hayot" kabi vizual kontentlar o'z mohiyatida real oilaviy hayotning tabiiy dinamikasini inkor etuvchi sun'iy tasavvurlarni shakllantirmoqda. Bunday tasvirlar ko'pincha estetik jihatdan mukammallik, doimiy muvofiqlik va hissiy uyg'unlikni aks ettiradi, ammo ular orqasida ko'plab ijtimoiy tazyiq, tijorat maqsadi turganini foydalanuvchilar anglab yetmasliklari mumkin.

Bu jarayon psixologiyada "ixtiyoriy solishtirish asosida yuzaga kelgan real-hayotdagi norozilik sindromi" deb yuritiladi. Ya'ni inson o'z hayotini yoki turmush o'rtoq bilan bo'lgan munosabatini ijtimoiy tarmoqlarda ko'rgan, ko'pincha rejissyorlik asosida tuzilgan mukammallik obrazlari bilan solishtiradi. Bu esa ichki norozilik, beqarorlik, tushkunlik va hatto passiv agressiyaga olib keladi. Bu holat psixolog Albert Ellis tomonidan ishlab chiqilgan Rational Emotive Behavior Therapy nazariyasida shunday izohlanadi: "Inson o'z hayotiga nisbatan norozilikni voqealarning o'ziga emas, balki ularni o'z xayolida ideallashtirilgan variant bilan solishtirishiga asoslanib yaratadi. Bu irreal kutishlar va tushkunlik manbaidir"^[8] Yuqoridagi muammo "ixtiyoriy solishtirish asosida yuzaga kelgan real-hayotdagi norozilik sindromi" sifatida ham izohlanadi. Inson o'zining oilaviy hayotini ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ko'rinib turuvchi "baxtli juftliklar" obrazi bilan solishtiradi. Natijada mavjud hayotdagi tabiiy qiyinchiliklar, hissiy siljishlar, har xil xarakter va qadriyatlar o'rtasidagi farqlar salbiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Bu esa turmush o'rtoqlar o'rtasida hissiy sovuqlik, passiv agressiya, bahs-munozaralar va psixologik beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Er-xotin munosabatlarining barqarorligi asosan ikki ustunga - sodiqlik va ishonchga tayanadi. Bu qadriyatlar nafaqat psixologik barqarorlik, balki huquqiy va axloqiy me'yorlar nuqtayi nazaridan ham nikohning mustahkamligida asosiy omillar hisoblanadi. Biroq raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning insonlar orasidagi hissiy aloqalarni qayta shakllantirayotganligi, nikohdagi sodiqlik tushunchasini ham yangicha, ko'pincha xavfli kontekstdan qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "virtual xiyonat" tushunchasi bugungi kunda psixologik va sotsiologik tahlillarda alohida e'tibor talab qiladigan hodisaga aylangan.

O'zbek olimasi M. Usmonova o'z tadqiqotlarida shunday fikr bildiradi: "Bugungi kunda ajralish holatlari-ning muhim qismini aynan ijtimoiy tarmoqdagi yashirin emotsional munosabatlar - ya'ni virtual xiyonat tashkil etmoqda. Jismoniy yaqinlikka bormasa-da, bu holat psixologik beqarorlikni keltirib chiqaradi, oilada ishonch va sodiqlik darajasini yemiradi"^[9] Tadqiqot va tahlillardan ko'rish mumkinki, raqamli aloqa vositalarining oilaviy munosabatlarga ta'siri chuqur va ziddiyatli bo'lib, uning ijobiy imkoniyatlari qatorida salbiy oqibatlari ham tobora yaqqol sezilmoqda. Virtual xiyonat - bu zamonaviy oilalar uchun jiddiy tahdid bo'lib, u shunchaki axloqiy muammo emas, balki psixologik beqarorlik, hissiy begonalashuv va nikohdagi ishonchning yemirilishiga olib keluvchi yangi raqamli muhit hodisasidir. Oilaviy barqarorlikni saqlash uchun sodiqlik tushunchasini kengaytirib, nafaqat jismoniy, balki emotsional sodiqlikni ham muhim qadriyat sifatida tan olish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy ajrimlarga olib keluvchi sabablar orasida ijtimoiy tarmoqlar alohida o'rin egallayotgan bo'lsa-da, u hali eng yetakchi omil emas. "Ijtimoiy fikr" markazi 2021-yilda o'tkazgan keng qamrovli so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ajrimlarning eng ko'p uchraydigan sabablari sifatida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi (41,2 %) va oilaviy moddiy muammolar (40,4 %) tilga olingan. Shuningdek, bepustlik (farzand ko'rolmaslik)



12,6 % holatlarda nikoh buzilishiga olib keluvchi omil sifatida qayd etilgan.^[10] Shu qatorda, oiladagi zo'ravonlik, kelin-kuyovning oilaviy hayotga tayyor emasligi kabi omillar ham bor.

Biroq zamonaviy raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlar sabab nizolar ortib borayotgani ham statistiklarda aks etmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, so'rov ishtirokchilarining 12,2 foizi ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanish oilani yemiruvchi jiddiy sabab ekanini aytgan. Yana 24 foiz ishtirokchilar esa globallashuv va ommaviy madaniyat ta'sirida yoshlarning oilaviy qadriyatlarga munosabati o'zgarib, barqaror oila qurish qobiliyati pasaymoqda, deb hisoblaganlar. Ular ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yangi qarash va hayot tarzlari yosh oilalarning mustahkam bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlashgan.

Bugungi kunda yosh avlodning ijtimoiy fikrlashi, qadriyatlar tizimi va hayotiy tanlovlari avvalgi avlodlarga nisbatan keskin o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarning markazida global axborot maydoniga erkin kirish va raqamli tarmoqlarda faol ishtirok etish turibdi. Ayniqsa, Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalar yoshlarning tafakkurini shakllantirishda kuchli vositaga aylangan. Mazkur platformalar orqali ular turli millat, irq, jins va dunyoqarashdagi insonlar bilan muloqot qiladi, muqobil turmush tarzi, gender rollari, individualist qadriyatlar, turmush qurishga alternativ yondashuvlar haqida ma'lumot oladi. Bu esa, tabiiyki, ularning oilaviy hayotga nisbatan yondashuvini yangilab, avvalgi avlodlarnikidan farq qiluvchi qarorlar qabul qilishlariga olib kelmoqda.

Yoshlar orasida nikohdan ajralishga munosabat ham asta-sekin o'zgarib bormoqda. Jamiyatimizda hanuz aksariyat odamlar uchun ajrim salbiy hodisa sifatida qabul qilinadi - masalan, bir so'rovda ishtirokchilarning 81,3 foizi ajrimni mutlaqo yoqlab bo'lmaydigan, salbiy holat deb baholagan. Shu bilan birga, yoshlarda muayyan pragmatik yondashuv paydo bo'lmoqda: agar nikohda jiddiy va hal etib bo'lmay muammolar bo'lsa, uni faqat tashqi ko'rinish uchun saqlab qolish to'g'ri emas, deb hisoblovchilar soni ortyapti. Xususan, o'sha so'rov ishtirokchilarining qariyb chorak qismi (25,2 foiz) ajrim hollarda ajrashish yagona to'g'ri yechim bo'lishi mumkin, degan fikrni bildirgan, va bunday nuqtai nazar asosan yoshlar vakillariga xosligi aytilgan. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, yosh avlod vakillari oilani saqlab qolish masalasida ko'proq shaxsiy baxt-saodatni ustun qo'yishga moyil; ular uchun zohiran "saqlangan", ammo murosa yo'q oiladan ko'ra, muammoli nikohni tugatish maqbulroqdek ko'rinishi mumkin. Albatta, bu o'zgarish ortida ijtimoiy tarmoqlarda ko'p uchraydigan individualizm g'oyalari, mustaqil va erkin hayotga da'vat etuvchi kontentlar ta'siri ham bor, deyish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir jihati - yosh oilalardagi rollar taqsimotiga ta'siri. Masalan, global tarmoqda oilaviy majburiyatlarni er-xotin teng bajarishi, o'zaro hurmat va hamkorlik haqida ko'plab kontent uchraydi. Bu g'oyalar bizning jamiyatimizdagi ba'zi an'anaviy qarashlar bilan uyg'unlashishi yoki to'qnash kelishi mumkin. Natijada, yosh juftliklar orasida uy yumushlarini bo'lishish, farzand tarbiyasida teng qatnashish kabi yangi oilaviy model unsurlari paydo bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar ko'proq shaharlardagi, ma'lumotli yoshlar o'rtasida kuzatilsa-da, ijtimoiy tarmoqlar orqali chekka hududlardagi oilalar ongiga ham kirib bormoqda.

Shunday ekan, zamonaviy oila institutini mustahkam saqlash uchun raqamli madaniyat va axborot savodxonligini oshirish muhim. Er-xotinlarning internetdan oqilona foydalanish qoidalariga amal qilishi, bir-birining onlayn faoliyatidan xabardor bo'lishi va kerak bo'lsa, chegaralarni belgilab olishi lozim. Farzandlar tarbiyasida ham virtual olam bilan muvozanatni o'rgatish, oilaviy qiymatlarni ustuvor qilish zarur. Davlat tashkilotlari va OAV tomonidan oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish, psixologik xizmatlar orqali oilalarga ko'mak berish choralari ko'rilmogda. Oilani mustahkamlash har doimgidan ham muhim vazifa bo'lib qolmoqda, zero, ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi davrida oila institutini asrab-avaylash jamiyat barqarorligi garovidir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli davrda baxtli va mustahkam oila qurish uchun nafaqat mehr-muhabbat, balki onlayn xulq-atvor madaniyati ham zarur omilga aylangan. Oilalar o'zaro ishonchni mustahkamlash uchun ochiq muloqot va o'zaro hurmatga tayangan holda, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi sifatida ham mas'uliyatni his eta olsalar, zamonaviy axborot asri sharoitida ham nikoh rishtalarini bardavom saqlash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bir davrda, oilaviy munosabatlar ham ushbu o'zgarishlardan chetda qolmayapti. Virtual muloqotning afzalliklari bilan bir qatorda, u er-xotinlar orasidagi hissiy yaqinlikka, ishonchga va sodiqlikka zarar yetkazayotgan holatlar ham kam emas. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari vaqt o'tkazish, doimiy solishtirish, "ideal" juftliklar haqidagi kontentlar psixologik norozilik va hissiy begonalashuvga olib kelmoqda. Oila muqaddasligi haqida turli mafkuralar hukm surayotgan global axborot maydonida yoshlar ko'pincha turmushga nisbatan yangi, individualistik yondashuvlarni qabul qilmoqda. Bu esa milliy an'analar bilan to'qnash kelib, nikoh mustahkamligini izdan chiqarishi mumkin. Shu sababli, oila institutini saqlab qolish yo'lida raqamli madaniyatni shakllantirish, onlayn xulq-atvorning mas'uliyatli andozasini yaratish, yoshlarni axborot muhitidagi salbiy oqibatlardan ogoh qilish zarur. Muloqotni faqat raqamli shaklda emas, balki real, jonli va hissiy jihatdan boy tarzda yuritish oilaning



uzoq umr ko'rishini ta'minlaydi. Davlat siyosati, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda psixologik xizmatlar oilalarni bu borada qo'llab-quvvatlashi, internetdan foydalangan holda emas, balki ongli va ijobiy oila qurish borasida targ'ibot olib borishi zarur. Nikohdagi ishonch va sodiqlik faqat an'anaviy vositalar bilan emas, balki zamonaviy raqamli muhitda ham himoya qilinmog'i kerak. Zero, raqamli asrda oilani asrash - bu faqat urf-odatlarini emas, balki ongli tanlovni, madaniyatli raqamli muloqotni ham o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Giddens A., The Transformation of Intimacy. Stanford University Press. 1992, p-88
2. Imom G'azzoliy. "Ihyo ulum ad-din" O'zbekiston. 2020, b-227
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6–8 mart kunlari Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqi.
4. Sherry Turkle. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. Tori Callais, Department of Higher Education, Loyola University Chicago 2015. p-7
5. Friedemann Schulz von Thun. The four-sided model. <https://www.allensbach-hochschule.de/en/four-sides-model-by-friedemann-schulz-von-thun-understanding-messages-better/>
6. Jean Twenge. The Effects of Social Media on Teens and Young Adults. 2022, <https://psychology.sdsu.edu/social-media-and-kids-mental-health-jean-twenge/>
7. Serge Tisseron, Le jour où mon robot m'aimera. 2018, p-155. <https://www.fnac.com/a8625769/Serge-Tisseron-Le-Jour-ou-mon-robot-m-aimera>
8. Albert Ellis. Rational-Emotive Behavior Therapy. 2003. <https://psycnet.apa.org/doi/10.1023/A:1024177000887>
9. M.S.Usmonova Virtual xiyonat: nikohdan ajratish sababi sifatida https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_eab-6c4f0401b40058dd8f8541a223d34.pdf?index=true
10. O'zbekistonliklar 21-25 yoshni oila qurishga eng yaxshi yosh deb hisoblashadi // <https://uza.uz/posts/267441>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.